

***O'ZBEK IZOHLI LUG'ATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI***

**ATMU 1-kurs magistranti
G'ayratova Maftuna Hamdam qizi**

Annotatsiya

Mazkur maqola o'zbek izohli lug'atchiligining shakllanish bosqichlari , tarixiy taraqqiyoti hamda zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi. O'zbek tilshunosligida izohli lug'atlarning tutgan o'rni , ularning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilib istiqboldagi rivojlanish masalalariga e'tibor qaratiladi. Lug'atlar har doim biz uchun muhimligi anglatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: izohli lug'at, leksikografiya, o'zbek tili

Lug'atchilik, leksik birlik, lug'at tarixi, lug'at turlari.

Kirish

Lug'atchilik tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, til boyligini jamlash ,tartibga solish va me'yorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi . Ayniqsa, izohli lug'atlar tilning leksik tizimini , etadi . Ayniqsa, izohli lug'atlar tilning leksik so'zlarning ma'nosi , qo'llanish doirasi va uslubiy xususiyatlarini ochib berishda yetakchi manba hisoblanadi.

O'zbek izohli lug'atchiligi uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lib, bugungi kunda zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida yangi rivojlanish bosqichiga chiqmoqda. O'zbek izohli lug'atchiligining shakllanish bosqichlari ,o'zbek lug'atchiligining ildizlari qadimgi turkiy til yodgorliklariga borib taqaladi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari turkey tillar , jumladan, o'zbek tilining lug'aviy boyligini izohlashda dastlabki ilmiy manba sifatida alohida ahamiyatga ega. Ushbu asarda so'zlarning ma'nosi , izohli va ayrim hollarda grammatik xususiyatlari berilgan .

Keyingi davrlarda Alisher Navoiy asarlari asosida tuzilgan lug'atlar o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qilgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida rus-o'zbek va o'zbek-rus lug'atlar bilan bir qatorda izohli lug'atchilikka e'tibor kuchaydi.

XX asrda o'zbek izohli lug'atchiligida ilmiy asosda rivojlandi . Ayniqsa, "Ozbek tilining izohli lug'ati" (bir necha jildda) o'zbek leksikografiyasini Yirik yutug'I bo'lib , unda adabiy tilning asosiy lug'aviy boyligi tizimli ravishda izohlandi . Bu lug'at o'zbek tilining me'yorlarini belgilashda muhim manbaga aylandi.

Izohli lug'atlarning ilmiy va amaliy ahamiyati

Izohli lug'atlar nafaqat tilshunoslar, balki adabiyotshunoslar, tarjimonlar, jurnalistlar , o'qituvchilar va keng kitobxonlar uchun muhim qo'llanma hisoblanadi. Ular orqali so'zlarning to'g'ri ma'nosi , uslubiy rangi va qo'llanish doirasi aniqlanadi. Shuningdek, izohli lug'atlar til madaniyatini oshirish , nutqni boyitish va adabiy me'yorlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek lug'atlar orqali biz imloviy savodxonlikka va sinonimik so'z boyligiga ega bo'lamiz .Tom ma'noda lug'atchilik tilimizning sofligi va boyligini yanada oshirishga xizmat qiladi . Izohli lug'atchiligining ilmiy ahamiyati bugungi kun uchun juda muhimdir . Shu sababli ham lug'atlarga bo'lgan talab kundan kunga oshib bormoqda .Qadimgi tilshunosligimizda ham hozir ham har bir sohada biz izohli lug'atlarga nazar tashlaymiz .

O'zbek izohli lug'atchiligining rivojlanish istiqbollari

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar sharoitida o'zbek izohli lug'atchiligi oldida yangi vazifalar turibdi . Avvalo, elektron va onlayn izohli lug'atlarni yaratish , ularning muntazam yangilab boorish dolzarb masalarga aylandi . Zamonaviy til taraqqiyoti natijasida yuzaga kelayotgan yangi so'zlar , terminlar va neologizmlarni izohli lug'atlarga kiritish zarur, shuningdek korpus lingvistikasi asosida tuzilgan izohli lug'atlar so'zlarning real nutqdagi qo'llanishini yanada aniqroq yoritish imkonini beradi. Sun'iy intellect va til texnologiyaridan foydalanish esa lug'atchilik ishlarini tezlashtirish va sifat jihatidan yangi bosqichiga olib chiqishi mumkin. Bu sohaning rivojlanishi uchun ko'plab tilshunos olimlarimiz ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Bu boradagi izlanishlar bugungi kun avlodi uchun muhim dasturilamal vazifasini bajaradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda , o'zbek izohli lug'atchiligi boy tarixiy tajribaga ega bo'lib, u til taraqqiyotining ajralmas qismi hisoblanadi . Uning shakllanishi va rivojlanishi o'zbek adabiy tilining me'yorchas bilan chambarchas bog'liq . Kelajakda zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yondashuvlar asosida o'zbek izohli

lug'atchiligining yanada takomillashtirish , milliy tizimining boyligini to'liq va mukammal aks ettirish muhim vazifa bo'lib qoladi . Izohli lug'atlarimizda har bir so'zning lug'aviy ma'nosini bilish , ularni izlab topish biz uchun kerakli manbadir. O'zbek tili boy til ekanligini biz yana bir izohli lug'atlarda ko'rishimiz mumkin .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Koshg'ariy M. "Devoni lug'atit turk " Toshkent : Fan , 1960.
2. Navoiy A. " Muhokamat ul -lug'atayn " .-Toshkent : G'afur G'ulom nomidagi nashriyot ,1983.
3. Yo'ldoshev M. O'zbek leksikografiyasi masalalari .- Toshkent : Fan ,2001.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati . -Toshkent: O'zbekiston,2002.
5. Qodirov Q.O'zbek izohli lug'atlarining tuzilishi va tamoyillari //Til va adabiyot ta'limi ,2018 .
6. Saidova M. Korpus lingvistikasi va lug'atchilik ,2021
7. Mirtojiev M. O'zbek tilining semasologiyasi .-Toshkent : Fan ,2002
8. Ziyo.net, googel ,internet saytlari